

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**SHOKIROVA SADOQATXON MUXAMMATSOLIYEVNA**

**BEPUSHTLIKDA TUXUMDONNING KLINIK-ANAMESTIK VA  
MORFOLOGIK KO‘RSATGICHLARI**

**14.00.15 – Patologik anatomiya  
14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya**

**Tibbiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**  
**Content of the abstract of doctoral (DSc) dissertation**

<b>Shokirova Sadoqathon Muhammatsolievna</b> Bepushtlikda tuxumdonning klinik-anamestik va morfologik ko'rsatgichlari.....	3
<b>Шокирова Садокатхон Мухамматсолиевна</b> Клинико-анаместические и морфологические показания яичника при бесплодии.....	33
<b>Shokirova Sadoqathon Muhammatsolievna</b> Clinical, anamnestic and morphological indications of the ovary in infertility.....	67
<b>E'lon qilingan ishlar ro'yxati</b> Список опубликованных работ List of published works .....	76

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**SHOKIROVA SADOQATXON MUXAMMATSOLIYEVNA**

**BEPUSHTLIKDA TUXUMDONNING KLINIK-ANAMESTIK VA  
MORFOLOGIK KO‘RSATGICHLARI**

**14.00.15 – Patologik anatomiya  
14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya**

**Tibbiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2. DSc/Tib 858 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tma.uz](http://www.tma.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchilar:**

**Israilov Rajab Isroilovich**

tibbiyot fanlari doktori, professor

**Zufarova Shaxnoza Alimdjanovna**

tibbiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Eshboyev Erkin Abduxalimovich**

tibbiyot fanlari doktori, (DSc)

**Shatmanov Suynali Toktonazarovich**

tibbiyot fanlari doktori, professor

**Karimova Firuza Djovdatovna**

tibbiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Abu Ali ibn Sino nomidagi Tojikiston**

**Davlat tibbiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti huzuridagi PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Turon ko‘chasi, 2-uy. Tel./faks: (+99873) 245-59-07, faks: (99873) 245-59-07 ye-mail: [info@fjsti.uz](mailto:info@fjsti.uz)).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Turon ko‘chasi, 2-uy. Tel/faks: (+99895) 400-01-14, faks: (99873) 245-59-07 ye-mail: [info@fjsti.uz](mailto:info@fjsti.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_\_» «\_\_\_\_\_» kuni tarqatildi.

(2024 yil «\_\_\_» «\_\_\_\_\_»dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**A.A. Sidikov**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
tibbiyot fanlari doktori, professor

**M.D. Ashurova**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Sh.I.Ro‘ziev**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tibbiyot  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Muammoning dolzarbligi.** Bepushtlik – bu muntazam jinsiy hayotning 12 oyidan keyin hech qanday kontraseptlar qo‘llamasdan shaxsiy holda yoki turmush o‘rtog‘i bilan birgalikda homilador bo‘lmaslik hisoblanadi. Bepushtlik haqidagi ushbu ta‘rif<sup>1</sup> BJSST tomonidan ma‘qullangan (Paskar S.S., Boyarskiy K.Yu, 2017). Birlamchi bepushtlik – muntazam jinsiy hayot surishga qaramasdan bir marta ham homilador bo‘lmaslikdir. Keng miqyosda o‘tkazilgan epidemiologik tekshiruvlar natijalariga ko‘ra, dunyoda bepushtlik o‘rtacha 9% tashkil qiladi (Boivin J., Bunting L., Collins J., Nygren K., 2007). Ushbu muammo kambag‘al davlatlar aholisi orasida 30% gacha ko‘tariladi (Inhorn M.C., Patrizio P., 2015). Dastlabki epidemiologik tadqiqotlar AQShda o‘tkazilgan (Stephen E.H., Chandra A. 1998). Unda 10847 ayollarda so‘rovnoma o‘tkazish natijasida turmush o‘rtog‘i bilan 3 yil hayot ko‘rganlarning 10% da bepushtlik aniqlangan. Tadqiqotlarga ko‘ra, bepushtlik ayollar yoshi o‘tgan sari oshib borishi kuzatilgan. Agar ayollar 20-24 yoshda turmush qursa, bepushtlik 6%, 30-34 yoshda turmush qursa - 16%, 40-45 yoshda turmush qursa bepushtlik 45% gacha oshib borishi kuzatilgan. Shunga o‘xshash tadqiqotlar Shimoliy Karolinada o‘tkazilgan, unda aniqlanishicha 19-26 yoshda bepushtlik 8%, 27-34 yoshlilarda 13-14%, 40-45 yoshlilarda 18% da aniqlangan (Dunson D.B., Baird D.D., Colombo B., 2004). O‘zbekiston Respublikasi sharoitida o‘tkazilgan bir qator tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, bepushtlik 4,9-5,3% uchraganligi aniqlangan (Ismailov S.I. va boshq. 2014). Sabablari sifatida asosan endokrin kasalliklar aniqlangan, jumladan: diffuz buqoq, gipotireoz, tuxumdon yetishmasligi, tuxumdon polikistoz sindromi, giperandrogeniya, follikula genezi buzilishi va peshob yo‘llari TORCH infeksiyasi.

Bepushtlikning sabablari davlatlarning geografik joylashuviga va atrof - muhit holatiga ham bog‘liq. BJSST tomonidan o‘tkazilgan epidemiologik tadqiqotlariga ko‘ra (1990), Afrika davlatlarida tug‘ilishning kamligiga qaramasdan, bepushtlik yuqori darajada uchraydi. Bu kontinentda bepushtlik 10,1% tashkil qilgan bo‘lsa, bir vaqtning o‘zida Yevropa davlatlarida 5,4%, Yaqin Sharqda – 3,0%, Shimoliy Amerikada – 6,0%, Janubiy Amerikada – 3,1%, Osiyo davlatlarida – 4,8% tashkil qilgan. Ushbu tadqiqotlarga ko‘ra, bepushtlikning asosiy sababi endokrin patologiyalar bo‘lib chiqqan va 35% ni tashkil qilgan, bachadon nayi patologiyalari 27% ligi aniqlangan. Oxirgi yillarda o‘tkazilgan tekshiruvlarga ko‘ra, G‘arbiy Yevropada (Evers J., 2002) erkaklar omili 20-24%, anovulyasiya – 18-24%, servikal omil 9-15%, bachadon nayi-peritoneal omil 11-30%, sabablari noma'lum bepushtlik 25-30% ni tashkil qilgan. Xulosada ko‘rsatish mumkinki, bepushtlikning uchrash darajasi va sabablari davlatlarning rivojlanganlik darajasiga qarab, har xil hududlarda turlicha ko‘rsatishga ega. Ushbu ko‘rsatkichlarni bilish, kelajakda dunyo aholisi orasida bepushtlikni kamaytirishda va reproduktiv texnologiyani rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-sonli «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

<sup>1</sup> 1Ismailov S.I. va boshq. 2014

2Dunson DB, Baird DD, Colombo B., 2004

to'g'risida», 2017 yil 16 martidagi PF-4985-sonli «Shoshilinch tibbiy yordam faoliyati tizimini tashkil etish va moddiy-texnik bazani kelgusida mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida», 2018 yil 7 dekabrda PF-5590-sonli «O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2017 yil 20 iyundagi PQ-3071-sonli «O'zbekiston Respublikasi aholisiga 2017-2021 yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi

Qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertasiya tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertasiya tadqiqoti Andijon davlat tibbiyot institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №005.01.1500216 «Omillar va ularni tuzatish yo'llari sharoitida eksperimental patologiyaning turli shakllarida organizm hayot faoliyati parametrlarining funksional metabolik va struktur xususiyatlari, sud-tibbiy ekspertiza obyektlarini tadqiq qilish va ekspert baholashning yangi imkoniyatlari» (2018-2022 yy.) mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

#### **Muammoning o'rganilganlik darajasi.**

Ayollar reproduktiv tizimida bepustlik eng dolzarb muammo hisoblanadi. Bepustlik – infertilitas (lat. *Sterilitas*) tabobatda eru-xotin juftligining bola ko'rish yoshida va muntazam jinsiy hayot kechirganda bola bo'lmaslik hisoblanadi. Uning sabablari ko'rinishida bachadon nayi muammolari, jumladan: davolanmagan infeksiyasi, noto'g'ri ko'rinishda o'tkazilgan abort yoki qorin bo'shlig'i infeksiyasi va sepsisi oqibatida fallopiy nay o'tkazuvchanligining buzilishi asosiy o'rinni egallaydi. Bachadonning patologik holatlari – yallig'lanishi, endometrioz, tug'ma patologiyalari, miomalar ham muhim hisoblanadi. Tuxumdonlarning patologik holatlari – polikistoz sindromi, follikulyar kista, ooforitning o'rni katta hisoblanadi. Ayollar reproduktiv gormonlar disbalansiga olib keluvchi endokrin kasalliklarning o'rni bepustlikda asosiy joyni egallaydi. Endokrin tizimning markaziy a'zolari bo'lgan gipotalamus va gipofizning patologik holatlari markaziy o'rinni egallaydi. Bepustlikning yana bir sababi, bu eru-xotin organizmlarining biologik va immunologik mos kelmasligidir. Bu holatni aniqlash uchun Kursroka-Millerning "Postkoital test"ni o'tkazish kerak. Bunda, jinsiy aloqadan keyin 9 soat o'tib bachadon bo'ynidan shilimshiq moddani olib, undagi spermatozoidlar soni va harakatchanligi tekshiriladi. Test ishonchli chiqishi uchun ayolda ovulyasiya davri boshlanganda o'tkazgan maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tuxumdon juft a'zo bo'lib, reproduktiv va endokrin vazifalarni bajaradi. Tuxumdon embriogeneznining 5-haftaligida selemik epiteliy, mezenxima va sariq tananing gonosit hujayralaridan shakllanadi. Selemik epiteliydan kelajakda

follikulalar va sariq tana paydo bo‘ladi. Mezenxima manbalaridan tuxumdonning stroma to‘qimasi va steroidlar sintezlovchi to‘qima paydo bo‘ladi. Sariq xalta selemik hujayralaridan ovositlar shakllanadi. Embrional ontogenezning oxirida tuxumdonda deyarli barcha to‘qima tuzilmalari shakllanadi, chaqaloqlar tug‘ilgan paytida tuxumdonning po‘stloq qavati primordial tuxum hujayralar bilan to‘lgan holatdaligi aniqlanadi. Tuxumdonning morfofunktsional holsizlanishi, polikistozi ko‘pincha jinsiy a'zolarining prenatal davrda shikastlanishidan kelib chiqadi.

Bepushtlik bo‘yicha jarrohlik amaliyotida olingan tuxumdon bo‘lakchalarini morfologik tekshiruvda o‘ziga xos bir qator patomorfologik o‘zgarishlar rivojlanganligi, natijada tuxumdonning asosiy funksiyasi bo‘lgan ovulyasiyasi buzilib, morfologik jihatdan atrofiya, destruksiya yuz berganligi kuzatiladi: 1) tuxumdon oq pardasi va po‘stloq qavati fibromatozi, 2) tuxumdon tashqi yuza to‘qimasining disregenerator patologiyasi, 3) Tekamatoz yoki gipertekoz, 4) tuxumdon oraliq <sup>2</sup>to‘qimasining yallig‘lanishli, distrofik, disregenerator patologiyalari.

Tuxumdon stromasi teka to‘qimasining giperplaziyasi kam uchraydigan kasallik bo‘lib, ko‘pincha ekstragenital kasalliklar, endokrin patologiyalar oqibatida boshlanadi va birlamchi bepushtlikka olib keladi. Gipertekoz patogenetik jihatdan jinsiy gormonlar faollashuvi oqibatida teka hujayralar o‘rniga epitelioid teka hujayralarning ko‘payishi yuz beradi. Tekka hujayralar sekretor faolligi androgen miqdorining oshishiga, organizmning virilizasiyasiga olib keladi. 1942 yilda S. Geist va J. Geines birinchi bo‘lib, tuxumdonni gistologik tekshiruv natijasida lyuteinlashgan teka hujayralarning ko‘payganligini, ichki teka hujayralariga o‘xshash tuzilishdaligi va follikulalarga bog‘liq bo‘lmagan holda ko‘payganligi aniqlangan. Hozirgi kunda bu jarayonning nomi aniq qo‘yilmaganligi sababli, unigipertekoz, kortikal stromal giperplaziya, stromal proliferasiya, stromal tekoz tekamatoz deyishadi.

Tuxumdon tashqi oq parda to‘qimasida qon tomirlar yo‘q, ya'ni bu to‘qimaning o‘ziga xosligi vaskulyarizasiyasi amalga oshmagan. Uning yuzasi embrional kubsimon epiteliy bilan qoplangan. Oq parda qorinchasi rivojlanishining oxirgi davrlarida mezonefron stromadan shakllanadi. Uning qalinligi tuxumdon yuzasining har xil sohalarida turlicha, oq parda to‘qimasidan fibroz to‘qima paydo bo‘lgan sohalarida nisbatan qalin, ba'zida bunday joylarda atreziyaga uchragan tuxum hujayralari aniqlanadi (Denisenko M. V., Kurser M. A., Kurilo L. F., 2016; Ivanov I. I., Popova-Petrosyan E. V., Dovgan A. A., 2017). Oq pardada bepushtlik rivojlanishiga xos morfologik o‘zgarishlar sifatida quyidagilar aniqlanadi, me'yoriy holatda oq parda fibroz to‘qimasi tarkibida birlamchi tuxum hujayralar joylashgan bo‘lsa, bepushtlikda birlamchi tuxum hujayralar deyarli yo‘q. Borlarida atreziya belgilari rivojlanganligi kuzatiladi, ya'ni follikulyar epiteliy bir qavatdan iborat bo‘lib, o‘lchamlari va tuzilishi deformatsiyalanganligi topiladi (Shapiro E.P. i dr, 2002; Sherbina N. A., Gradil O. G., 2013).

Surunkali ooforit – uzoq vaqt davom etuvchi yallig‘lanishli kasallik bo‘lib, ko‘pincha tuxumdonning ovarial-menstrual faoliyati buzilishi, bepushtlik

---

<sup>2</sup> 1 Denisenko M. V., Kurser M. A., Kurilo L. F., 2016; Ivanov I. I., Popova-Petrosyan E. V., Dovgan A. A., 2017.

rivojlanishiga olib keladi. Ko'pincha u bachadon nayi yallig'lanishi bilan salpingooforit ko'rinishida rivojlanadi va nay va tuxumdon bepushtligiga sababchi bo'ladi. Sabablari polietologik va infeksiyaning kirish yo'llari ham turlicha. Bu kasallik ko'pincha endometrit, salpingit, peritonitdan keyin rivojlanadigan ikkilamchi kasallik hisoblanadi. Tuxumdon yallig'lanishining o'ziga xosligi shundan iboratki, a'zoning to'qimasini asosan ovulyasiya va gormonal funksiyalarni bajaradigan tuzilmalar tashkil qiladi. Yallig'lanish jarayoni, bu biriktiruvchi to'qima va qon tomirlarda rivojlanganligidan, tuxumdonning mag'iz qavatida va undagi ko'psonli qon tomirlar va tomirlar atrofida biriktiruvchi to'qimada rivojlanadi. Tuxumdonda yallig'lanish jarayonining surunkali va uzoq vaqt davom etishiga sabab, stroma-tomir tuzilmalarini ovarial va endokrin funksiyalarini bajaruvchi to'qima tuzilmalari himoya qiladi va yallig'lanishga yo'l bermaydi.

Tuxumdon polikistoz sindromi akusherlik va ginekologiyada eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi va u 5-10% hollarda uchraydi va asosan anovulyator bepushtlikka olib keladi ( Neven A, Laven J, Teede H, Boyle J. A , 2018). Yevropa reproduktiv jamiyati va Amerikaning reproduktiv tabobati bo'yicha TPS quyidagi mezonlar bo'yicha qabul qilingan: oligoanovulyasiya, giperandrogenemiya (Carmina E, Guastella E, Longo R, 2016). TPSning uchrash darajasi etnik omillarga bog'liq, AQShda 8%, Gresiyada 6,8%, Ispaniyada 6,5%, Meksikada 13% uchraydi. TPSning asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi: menstruasiyaning yo'qligi, anovulyasiya, giperandrogeniya, metabolik sindrom. Ayollarda muntazam ravishda menstrual sikkelmasligidan davolab bo'lmaydigan asoratlar rivojlanadi, jumladan: davolab bo'lmaydigan bepushtlik, onkologik kasalliklar, mastopatiya, qandli diabet, yurak- qon tomir kasalliklari. TPS ni aniqlash uchun quyidagi mezonlarga e'tibor berish kerak, tuxumdonning o'lchamlari kattalashgan bo'ladi, po'stloq qavatida etilib borayotgan follikulalar soni 10 tadan ko'p bo'ladi, tuxumdon tashqi pardasi qalinlashgan holatda bo'ladi. TPS patogenezi gipotalamo-gipofizar tizimning buzilishi, lyuteinlovchi gormonning ko'p ishlab chiqarilishi, prostoglandinlar miqdorining oshishi, tuxumdonda aseptik yallig'lanish rivojlanishi va autoimmun jarayonning qo'shilishi hisoblanadi.

**Tadqiqot maqsadi.** Bepushtlikning klinik-anamnestik ma'lumotlarini tahlil qilish va tuxumdonda kuzatiladigan patologik holatlarning morfogenezi va xos patomorfologik belgilarini oydinlashtirish.

**Tadqiqot vazifalari:**

- bepushtlikning xavfli omillari sifatida: ayollar yosh guruhlari, tana vazni indeksi, somatik holati, ginekologik kasalliklari, tuxumdonning funksional va laborator ko'rsatkichlari, bepushtlikni bashoratlash mezonlarini tahlil qilish;

- bepushtlikda tuxumdonning yallig'lanishli kasalliklarining morfogenezi va patomorfologik belgilarini o'rganish;

- bepushtlikda tuxumdonning tekamatoz va gipertekoz kabi disregenerator kasalliklarining morfogenezi va patomorfologik belgilarini oydinlashtirish;

- bepushtlikda tuxumdon tashqi oq pardasining fibrozlanish morfogenezi va parenxima to'qimasiga morfofunktsional ta'sir mexanizmining morfologik belgilarini o'rganish;

-bepushtlikda tuxumdon polikistoz sindromining gistopatologik belgilari paydo bo'lish morfogenezi va patomorfologik ko'rsatkichlarini tahlil qilish;

-bepushtlikda tuxumdon to'qima va hujayralarining immunologik markerlari o'zgarish dinamikasini va har bir markerning morfofunktsional xosligini tahlil qilish.

-bepushtlikda Fallop nayi devorining patomorfologik xususiyatlarini o'rganish.

-bepushtlik yuzaga kelish xavfi mavjud ayollar uchun prognostik matritsa tuzish va olib borish algoritmini ishlab chiqish.

### **Tadqiqot obyekti.**

Ob'jekt sifatida Andijon shahar 2-tug'ruq kompleksining ginekologiya bo'limida, 2021 yildan 2022 yilgacha ambulator nazoratdan o'tgan 208 nafar bepushtlikdan aziyat chekkan ayollardan klinik laborator malumotlar olindi va ularning 70 tasida o'tkazilgan jarrohlik amaliyotida olib tashlangan tuxumdon va bachadon naylari ob'jekt sifatida morfologik jihatdan tekshirildi.

### **Tadqiqot predmeti.**

Birlamchi bepushtlikdan aziyat chekkan ayollar klinik-anamnestik ma'lumotlarini tahlil qilish va tuxumdonda kuzatiladigan patologik holatlarning morfogenezi va xos patomorfologik belgilari asosida tuxumdondagi ushbu xastalikka xos bo'lgan morfologik belgilarni oydinlashtirish.

### **Tadqiqotda qo'llanilgan usullar**

Bepushtlikdan aziyat chekkan ayollarda klinik-anamnestik tahlil o'tkazish, tuxumdonni umumiy morfologiya usuli – gematoksilin eozin bo'yog'ida, to'qima tarkibidagi nordon gliklozaminglikanlarni alsian ko'kida, biriktiruvchi to'qima tolalarini Van-Gizon usulida, to'qima va hujayralar antigenli markerlarini immunologik usulda tekshirildi. Shuningdek, umumiy klinik va instrumental tekshiruvlar (UZI, gisterosalpingografiya), immunogistoximik tahlil, IFA va bioximik tahlillar o'tkazildi va miqdoriy ko'rsatkichlarni statistika usulida tekshirildi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi**

Bepushtlikdan aziyat chekkan ayollarning aksariyati 30 yoshdan kattaligi, anamnezida bepushtlik mavjudligi, tana vazni indeksi ko'rsatkichining yuqoriligi, tuxumdon hajmining 3 sm<sup>3</sup> pastligi, antral follikulalar soni 5 tadan kamligi, tuxumdon stromal arteriyalar PI va IR ko'rsatkichlari pastligi, LG ning 8,0 me/l dan va FSG ning 7 me/l dan ortiq bo'lishi isbotlandi.

Tuxumdonning surunkali yallig'lanishida jarayon mag'iz qavatida ustun turganligi, qon tomirlarida dissirkulyasiya, hujayralarida distrofiya rivojlanishidan biriktiruvchi to'qimasi glikogenozli metaplaziyaga uchrab, vakuollashib, och rangga bo'yalganligi, ayrim joylarida gialinoz kuzatilib, ovulyasiya va gormonal funksiyani bajaruvchi hujayralarning disregenerasiyasi oqibatida bepushtlik rivojlanishi tasdiqlandi.

Tuxumdonning gipertekoz kasalligida teka hujayralar epitelioid shaklga kirib, follikulalarga bog'liq bo'lmagan holda, qon tomirlar atrofida, sitoplazmasi dumaloq-poligonal va ko'pikli, yadrosi yirik, funksional jihatdan faol hujayralar ko'rinishida giperplaziyalanganligi isbotlandi.

Qorin bo'shlig'idan yallig'lanish, disregenerasiya va autoimmun jarayonlarning tuxumdonga tarqalishi oqibatida, reparativ regenerasiya avj olib, biriktiruvchi to'qimaning o'sishi tezlashadi, qo'pol tolali fibromatoz va gialinoz rivojlanishidan oq parda qalinlashib, ovulyasiya va gormonal funksiyasi buzilishi bepustlik rivojlanganligi bilan asoslangan.

Tuxumdonning polikistoz sindromida tuxumdon interstisial to'qimasi disregenerasiyaga uchragani, teka hujayralar o'rniga fibroz to'qima o'sganligi, primordial tuxum hujayralar atrofida follikula epiteliysi kuchli giperplaziyalanganligi, ko'p sonli kistalar paydo bo'lganligi, giperandrogenemiya va anovulyasiyaga olib kelganligi va bepustlik rivojlanganligi isbotlandi.

Tuxumdon polikistoz sindromida tuxumdon to'qimasida o'tkazilgan immunogistokimyoviy tekshiruvlar ko'rsatishicha CD3 marker doimo manfiy, CD20 yarim holda o'rtacha ekspressiyalanish, yarmida manfiy, CD4 27% yuqori, 32% o'rta darajada, CD8 25% yuqori, 44% o'rta darajada ekspressiyalanganligi kuzatildi. Ki-67 proliferasiya markeri 18% yuqori, 67,7% o'rta va 21% manfiy, apoptoz geni 33% o'rta 67% manfiy darajada ekspressiyalanganligi aniqlandi.

Bepustlikka nay peritoneal sabab qo'shilganda, nayda shish va yallig'lanish infiltrasiyasi to'planishi tufayli, seroz membrana qalinlashib, mezoteliyning destruksiya uchrashti, mushak qatlamda diffuz limfoproliferativ yallig'lanish, buning natijasida bachadon devori ham sklerotik yallig'lanishga uchrashti tasdiqlandi.

### **Tadqiqotning amaliy ahamiyati**

Bepustlikdan aziyat chekkan ayollarning aksariyati 30 yoshdan kattaligi, anamnezida bepustlik mavjudligi, tana vazni indeksi ko'rsatkichining yuqoriligi, tuxumdon hajmining 3 sm<sup>3</sup> pastligi, antral follikulalar soni 5 tadan kamligi, tuxumdon stromal arteriyalar PI va IR ko'rsatkichlari pastligi, LG ning 8,0 me/l dan va FSG ning 7 me/l dan ortiq bo'lishi kabi klinik-laborator ma'lumotlar ginekologlar tomonidan bepustlik kasalligini aniqlashda dastur-qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tuxumdonning surunkali yallig'lanishida jarayon mag'iz qavatida ustun turganligi, qon tomirlarida dissirkulyasiya, hujayralarida distrofiya rivojlanishidan biriktiruvchi to'qimasi glikogenozli metaplaziyaga uchrab, vakuollashib, och rangga bo'yalganligi, ayrim joylarida gialinoz kuzatilib, ovulyasiya va gormonal funksiyani bajaruvchi hujayralarning disregenerasiyasi oqibatida bepustlik rivojlanishi haqidagi morfologik ma'lumotlar ginekologlar ish faoliyatida bepustlik kasalligini aniqlashda fundamental asos sifatida ahamiyat kasb qiladi.

Tuxumdonning gipertekoz kasalligida teka hujayralar epitelioid shaklga kirib, follikulalarga bog'liq bo'lmagan holda, qon tomirlar atrofida, sitoplazmasi dumaloq-poligonal va ko'pikli, yadrosi yirik, funksional jihatdan faol hujayralar ko'rinishida giperplaziyalanganligi haqidagi gistopatologik ma'lumotlar akusher va ginekologlar tomonidan tuxumdonning gipertekoz kasalligini o'rganishda fundamental ma'lumotlar sifatida foydalanishi mumkin.

Qorin bo'shlig'idan yallig'lanish, disregenerasiya va autoimmun jarayonlarning tuxumdonga tarqalishi oqibatida, reparativ regenerasiya avj olib, biriktiruvchi to'qimaning o'sishi tezlashadi, qo'pol tolali fibromatoz va gialinoz

rivojlanishidan oq parda qalinlashib, ovulyasiya va gormonal funksiyasi buzilishi bepushtlik rivojlanishi haqidagi morfologik ma'lumotlar akusher va ginekologlar ish faoliyatida qorin bo'shlig'ining yallig'lanishli va autoimmun kasalliklarini barvaqt aniqlashga va tuxumdonni ulardan saqlab qolish uchun dasturi-amal bo'lib xizmat qiladi.

Tuxumdonning polikistoz sindromida tuxumdon interstisial to'qimasi disregenerasiyaga uchragani, teka hujayralar o'rniga fibroz to'qima o'sganligi, primordial tuxum hujayralar atrofidagi follikula epiteliysi kuchli giperplaziyalanganligi, ko'p sonli kistalar paydo bo'lganligi, giperandrogenemiya va anovulyasiyaga olib kelganligi va bepushtlik rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar akusher va ginekologlar uchun tuxumdon polikistoz sindromi kasalligini aniqlashda va davolashda asosiy fundamental ma'lumotlar sifatida ahamiyatga ega.

Tuxumdon polikistoz sindromida tuxumdon to'qimasida o'tkazilgan immunogistokimyoviy tekshiruvlar ko'rsatishicha CD3 marker doimo manfiy, CD20 yarim holda o'rtacha ekspressiyalanish, yarmida manfiy, CD4 27% yuqori, 32% o'rta darajada, CD8 25% yuqori, 44% o'rta darajada ekspressiyalanganligi kuzatildi. Ki-67 proliferasiya markeri 18% yuqori, 67,7% o'rta va 21% manfiy, apoptoz geni 33% o'rta 67% manfiy darajada ekspressiyalanganligi haqidagi ma'lumotlar akusher va ginekologlarning bepushtlik kasalligi bo'yicha tuxumdon to'qima va hujayralarining immunogistokimyoviy markerining faollik darajasi haqidagi bilimlarini boyitishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda qo'llanilgan nazariy yondashuv va usullar, olib borilgan tekshiruvlarning uslubiy jihatdan to'g'riligi, tanlangan materialning etarliligi, tadqiqotda qo'llanilgan zamonaviy o'zaro bir-birini to'ldiruvchi klinik-anamnestik, patomorfologik va statistik tadqiqot usullari asosida bepushtlik kasalligiga chalingan ayollar klinik-anamnestik ma'lumotlari tahlili, tuxumdonda rivojlangan yallig'lanishli, disregenerator, gipertekozli, polikistoz sindromi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro, hamda mahalliy tajribalar bilan taqqoslangani, xulosa hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Bepushtlik prognozini yaxshilash uchun olingan ilmiy natijalarga asoslanib:

“Tuxumdon fibromatozi va tekomatozini bepushtlik belgisi sifatida morfologik diagnostika usuli”, “Bepushtlik uchun tuxumdonlarning klinik anamnestik va morfologik ko'rsatkichlari” uslubiy tavsiyalari ishlab chiqilib, amaliy sog'liqni saqlashga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 8-sonli xulosasi 30/01/2023 yil). Ushbu ko'rsatmalar bepusht nikohlar sonini kamaytirishga yordam beradi.

Bepushtlikni oldini olish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari sog'liqni saqlash amaliyotiga, jumladan, Andijon viloyati Jalolquduq tumani tibbiyot birlashmasi, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Farg'ona va Namangan filiallari faoliyatiga joriy etildi. (Sog'liqni saqlash vazirligining 2023 yil 26 yanvardagi 8 n-3/ 65-son ma'lumotnomasi).

**Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 10 ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining dissertasiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya tayyorlangan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertasiyaning hajmi 184 betni tashkil etgan.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertasiyaning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqot ishining O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning «**Ayollar bepustligining asosiy sabablari: tuxumdon bepustligining etiologiyasi, klinikasi, tashxisi va davosi**» nomli adabiyotlar sharhi deb nomlangan birinchi bobida dissertasiya mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi keltirilgan. Mahalliy va xorijiy olimlarning eng zamonaviy ilmiy yutuqlari tahlil qilingan. So'nggi yillarda ilmiy manbalarda nashr etilgan, bepustlik haqidagi ma'lumotlar aks ettirilgan adabiyotlar sharhi taqdim etilgan. Mazkur muammoning o'z echimini topmagan va aniqlashtirishni talab etadigan tamoyillari to'g'risidagi adabiyotlar tahlili berilgan.

Dissertasiyaning "**Tadqiqot materiallari va foydalanilgan usullar**" bobi bir nechta qismlardan iborat. Dissertasiyada foydalanilgan klinik va morfologik materialning umumiy tavsifi nomli qismida bepustlik tashxisi bilan ayollar 3 guruhga bo'lingan: 1-guruh bepustlikning endokrin bo'lmagan omillari (nay - peritoneal va endometrioz ) bo'lgan o'simtarga o'xshash hosilalar yoki funksional tuxumdon kistalari bo'lmagan 64ta ayol ; 2-guruh – TPKS (Tuxumdon polikistoz sindromi) fonidagi 48 ta homilador ayol; 3-guruh - TPKS fonida bepustlik tashxisi bilan 96 ta ayol. Bu guruhlar bo'yicha barcha bemorlar an'anaviy klinik tekshiruvdan o'tkazildi, jumladan, anamnez ma'lumotlarini, hayz davrining xarakteri, reproduktiv funksiyasi o'rganildi va umumiy va ginekologik tekshiruvdan o'tkazildi.

Birlamchi bepustlikning xavfli omillari sifatida: ayollar yosh guruhlari, tana vazni indeksi, somatik holati, ginekologik kasalliklari, tuxumdonning funksional va laborator ko'rsatkichlari, bepustlikni bashoratlash mezonlari tahlil qilindi. Morfologik tekshiruv usullari qismida bepustlik kasalligidan aziyat chekkan ayollarda o'tkazilgan jarrohlik amaliyoti paytida olib tashlangan tuxumdon makroskopik jihatdan o'rganilib, o'rtasidan ikkiga bo'linib o'rt va chetki

qismlarida 3tadan 6tagacha bo‘lakchalar kesib olindi va odatiy usulda ishlov berilib, mikroskopik jihatidan o‘rganilib, har biri bo‘yicha xulosalar qilindi.

Dissertasiyaning “**Tadqiqot materialining klinik-anamnestic tahlili va laborator tekshiruvlar natijalari**” nomli uchinchi bobida bepushtlikning etiopatogenezi bo‘yicha 3ta guruhga ajratilib, har bir guruhda ayollar yoshi, hayz ko‘rish yoshi, somatik holati, ginekologik kasalliklarning uchrash darajasi bo‘yicha ma'lumotlar tahlil qilinib, xulosalarga kelindi. Tekshirilayotgan ayollarda tuxumdonlar zahirasi xususiyatlari qismida 3 ta guruh bo‘yicha gormonlar ko‘rsatkichi, tuxumdonning ekografik xususiyatlari, tuxumdon stromasi qon tomirlaridagi qon oqimining parametrlari asosida xulosalar qilingan. TPKS bilan kasallangan ayollarda bepushtlik rivojlanishining prognostik mezonlari nomli qismida bepushtlik rivojlanishi uchun bashoratli matrisa ko‘rsatkichlari, noqulay reproduktiv bashoratlash xavfining individual diapazonlari va guruhlar bo‘yicha qiymati, bepushtlik rivojlanishini bashorat qilish uchun tavsiya etilgan xavfli omillar qiymati bo‘yicha xulosalar keltirilgan.

Yuqori tana vazni indeksi ko‘rsatkichlari, kasallikning kechishiga salbiy ta'sir ko‘rsatadigan omillardan biridir. 1-guruhda o‘rtacha **TVI**  $25,1 \pm 1,3$  kg, 2-guruhda -  $28,9 \pm 1,8$  kg, 3-guruhda -  $31,2 \pm 2,1$  kg. TVI ko‘rsatkichlari solishtirilganda, 2 va 3-guruhlardagi ayollarda bu sezilarli darajada yuqori ekanligi isbotlangan (mos ravishda  $R < 0,05-0,01$ ). Shuni ta'kidlash mumkinki, suhbat chog‘ida 3-guruhdagi ayollar o‘z vaznini kamaytirishga harakat qilganda ijobiy natijalarni qayd etmadilar. Tekshirilayotgan ayollarning somatik holati yurak-qon tomir tizimi kasalliklarining mavjudligi bilan tavsiflanadi, ular 2 va 3 - guruhlarda sezilarli darajada tez-tez uchraydi ( $R < 0,05$ ). TPKS bilan og‘rigan bemorlarda oshqozon-ichak kasalliklari ham sezilarli darajada tez-tez uchraydi ( $R < 0,305$ ). 2 va 3-guruhlardagi bemorlarda siydik tizimi va nafas olish organlarining kasalliklari 1-guruhga qaraganda ancha tez-tez uchrashi aniqlandi ( $R < 0,05$ ). Shuningdek, ushbu guruhlarda anemiya ko‘pincha 1-guruhga nisbatan somatik holatda qayd etilgan ( $R < 0,05$ ).

### 1-jadval. Tekshirilayotgan ayollarning somatik holati

Ko‘rsatkichlar	1 guruh ( n = 64 )		2 guruh ( n = 48 )		3 guruh ( n = 96 )	
	abs .	%	abs .	%	abs .	%
Insulin rezistentlik	5	7.8	8	16,7*	19	19,8*
2-toifa qandli diabet (kompensasiya bosqichi)	0	0	1	1.6	3	3.1^
Funksional giperprolaktinemiya	0	0	1	2.1	4	4.2^
Gipotireoz	1	1.6	1	2.1	4	4,2*
Yurak-qon tomir tizimining kasalliklari	5	7.8	17	35,4*	49	51,0*
Oshqozon-ichak trakti kasalliklari	10	15.6	12	25.0	27	28,1*

Kamqonlik	7	10.9	o'n bir	22,9*	23	24,0*
Siydik chiqarish tizimining kasalliklari	6	9.4	9	18,8*	23	24,0*
Nafas olish kasalliklari	4	6.3	7	14,6*	20	20,8*

Eslatma: \* - 1-guruhga nisbatan ma'lumotlarning ishonchliligi (  $R < 0,05$ ); ^ - 2 va 3 guruhlar o'rtasidagi ma'lumotlarning ishonchliligi (  $R < 0,05$ )

Gormonal holatni o'rganishda TPKS bilan og'riqan bemorlarda LG va testosteronning yuqori konsentratsiyasiga e'tibor qaratiladi, bunda hayz siklining 21-kuni progesteron darajasi anovulyasiya uchun xarakterli bo'lib, bu patologiya uchun patognomonik hisoblanadi. Boshqa ikki guruhdagi bemorlarning ko'pchiligida erta follikulyar fazadagi gormonlar darajasi normal qiymatlardan farq qilmadi va progesteron darajasi ovulyasiya mavjudligini ko'rsatdi. Tuxumdonlari operatsiya qilingan ayollar guruhida FSG gormonini oshishida 1-guruhdagi ayollar va TPKS bilan kasallangan ayollarga nisbatan sezilarli farqlar mavjud edi. 2 va 3-guruhdagi ayollarda LG darajasining sezilarli o'sishi qayd etilgan (  $R < 0,05$ ). 3-guruhdagi ayollarda 2-guruhga nisbatan LG qiymatlarining sezilarli o'sishi qayd etilgan (  $R < 0,05$ ). Zardobdagi estradiol konsentratsiyasi guruhlar o'rtasida sezilarli darajada farq qilmadi (  $R > 0,05$ ). Sanab o'tilgan ko'rsatkichlar 3.4-jadvalda keltirilgan.

## 2-jadval. O'rganilayotgan guruhlardagi bemorlarning asosiy gormonal ko'rsatkichlari



Ko'rsatkichlar	1 guruh ( n = 64 )	2 guruh ( n= 48 )	3 guruh ( n= 96 )
LG, hb/l	7,76 ± 0,46	8,1±0,36*	12,4±0,87*^
FSG, hb/l	7,59±0,47	11,76±1,08*	6,57±0,38^
Estradiol, nmol/l	0,41±0,04	0,38±0,03	0,39±0,03
Erkin testosteron, pg/ml	4,12±0,27	3,81±0,27	6,21±0,37*^
Umumiy testosteron, nmol/l	3,82±0,26	4,13±0,31	4,28±0,29
Prolaktin, hb/l	501,26±28,6	473,8±31,6*	587,9±41,4*^
Progesteron, nmol/l (21 kunlik sikl)	41,3±4,81	45,6±6,71	8,78±1,9*^

Eslatmalar: \* - 1-guruhga nisbatan ma'lumotlarning ishonchliligi (  $R < 0,05$ ); ^ - 2 va 3ta guruhlar o'rtasidagi ma'lumotlarning ishonchliligi (  $R < 0,05$ ).

Bulardan tashqari, TPKS bilan kasallangan ayollarda bepustlik rivojlanishining prognostik mezonlari, bepustlik rivojlanishini bashoratlash matrisasi, noqulay reproduktiv prognoz xavfining individual bashoratlarning pastki diapazonlari va guruhlar qiymatlari ishlab chiqarilgan.

**Klinik-laborator tahlillar bo'yicha xulosalar.** 1. Bepushtlik muammosi bilan og'riqan bemorlarning 45 % da tuxumdonlarning yaxshi sifatli kistalari (endometrioid kistalar, funksional kistalar, teratomalar va boshqalar) bo'yicha jarrohlik amaliyoti o'tkazilgan, ularning 63 % da ikkala tuxumdonning rezeksiyasi asosan laparoskopik usulda amalga oshirilgan. 2. Reproduktiv potensialni baholashda ovarial rezervning ko'proq etiborli parametrlari bo'lib, FSG, tuxumdonlar hajmi va ulardagi antral follikulalar sonidir, shuningdek, FSG ning darajasi tuxumdon ovarial rezervining aniq bioximik markeri bo'ldi, LG konsentrasiyasi bilan solishtirilganda. 3. TPKS bo'lgan ayollarda bepushtlik rivojlanishining xavf omillari: 30 yoshdan katta yosh, anamnezida bepushtlik, tuxumdonda operatsiyalarning o'tkazilmaganligi, tana vazni indeksining yuqori ko'rsatkichlari (semizlik), tuxumdon hajmining 3 sm kubdan pastligi, antral follikular sonining 5 tadan kam bo'lishi, dopplerometriyada tuxumdon stromal arteriyalarida PI va IR ko'rsatkichlarining pastligi, LG ning 8,0 me / l pastligi kuzatildi.

Dissertasiyaning 4-bobi **“Birlamchi bepushtlikda tuxumdon patologiyalarining morfogenezi va patomorfologik belgilari”** tuxumdon gistotopografik tuzilishini inobatga olib, bir nechta qismlarga bo'lib tahlil qilingan. 4.1. **“Bepushtlik holatida tuxumdon tashqi oq pardasi fibromatozining patomorfologik belgilari”** qismida tuxumdon oq pardasi va po'stloq qavati fibromatozi rivojlanishining sabablari quyidagilardan: tashqi yuzasidan po'stloq qavatga tarqalgan yallig'lanish, to'qima va hujayra tuzilmalarida moddalar almashinuvi buzilishi, disregenerator jarayonlar boshlanishi, ayrim holatlarda immunopatologik jarayonning qo'shilishidan iborat Yuqorida ko'rsatilgan umumiy patologik jarayonlar rivojlanishi oqibatida tuxumdon to'qimasi tarkibidagi mavjud biriktiruvchi to'qima faollashib, giperplastik jarayonga aylanadi. Natijada umumiy patologik jarayonlarga qo'shilgan holda biriktiruvchi to'qimaning ham hujayra, ham tolali tuzilmalari ko'payib, proliferatsiyalanadi (1-rasm). O'sib ko'paygan biriktiruvchi to'qima tarkibida me'yordan ortiq hujayralar ko'payib, tolali tuzilmalar va oraliq modda mukopolisaxaridlari ishlab chiqariladi. Reparativ regeneratsiyaga uchragan biriktiruvchi to'qima fibroz to'qimaga aylanadi, ya'ni tarkibida qo'pol tolalar paydo bo'ladi, hujayralari dezorganizatsiyaga uchraganligi oqibatida tolalarining fibroelastoza, gialinozi rivojlanishi kuzatiladi. Bu holatdagi fibromatozga uchragan tuxumdonning ham ovulyatsiya, ham gormonal funksiyalari buzilib, bepushtlikka olib keladi.




1-rasm. 32 yoshli ayol tuxumdoni. Tashqi yuzasida zich skleroz qatlarning paydo bo'lishi, po'stloq qavatida biriktiruvchi to'qima tutamlarining betartib joylanishi. Bo'yoq: G-E. Kat: 10x40

2-rasm. 26 yoshli B nomli ayol tuxumdoni. Teka hujayralarning epitelioid hujayralarga aylanganligi, orasida birlamchi follikulalardan kistasimon bo'shliqlar paydo bo'lganligi. Bo'yoq: G-E. Kat: 10x40.


4.2-“**Ovarial gipertekoz va tekamatozining patomorfologiyasi**” qismida ko'rsatilganidek, Gipertekoz kasalligi patogenezi jinsiy gormonlar faollashuvi oqibatida teka hujayralar o'rniga epitelioid teka hujayralarning ko'payishi kuzatiladi. Tekal hujayralar sekretor faolligi androgen miqdorining oshishiga, organizmning virilizatsiyasiga olib keladi. 1942 yilda S. Geist va J. Geines birinchi bo'lib, tuxumdonni gistologik tekshiruv natijasida lyuteinlashgan teka hujayralarning ko'payganligini, ichki teka hujayralariga o'xshash tuzilishdaligi va follikulalarga bog'liq bo'lmagan holda ko'payganligi aniqlangan. Hozirgi kunda bu jarayonning nomi aniq qo'yilmaganligi sababli, unigipertekoz, kortikal stromal giperplaziya, stromal proliferasiya, stromal tekoz tekamatoz deyishadi. Gistologik jihatdan po'stloq qavatida primordial follikulalar ko'p, rivojlanishga uchragan follikulalar kam va sariq tana uchramaydi. Stromal teka to'qimaning o'sishi oqibatida tuxumdon kattalashgan yoki tugunlar paydo bo'lganligi aniqlanadi. Epitelioid teka hujayralari tarqoq holda yoki qon tomirlar atrofida ko'payganligi kuzatiladi. Tekal hujayralar dumaloq-poligonal shaklda, sitoplazmasi ko'pikli vakuollashgan, yadrosi yirik, funksional jihatdan faol hujayralar hisoblanadi (2-rasm). Ushbu ko'rsatilgan patomorfologik o'zgarishlar boshqa biror kasallikka xos emasligidan, ushbu kasallikni alohida nozologik shakl deb qabul qilsa bo'ladi.

4.3- “**Bepushtlikda tuxumdon tashqi yuzasi va oq parda patologiyalari**” qismida ko'rsatilganidek, bepushtlikda tuxumdon tashqi yuzasi va oq pardasining yana bir patologiyasi, bu tashqi yuzasida har xil chuqurlikdagi, ayrimlarining tarmoqlanishi bilan davom etgan, xatto mag'iz qavatigacha etib borgan invaginasiyalar paydo bo'lishi hisoblanadi. Bunday chiqur invaginasiyalarda paydo bo'lgan yoriqlar tuxumdon tashqi qoplovchi epiteliysini, oq parda to'qimasini, po'stloq qavat teka to'qimasini buzganligi, yoriqlar chegarasida yallig'lanish jarayoni va fibromatoz jarayoni rivojlanganligi aniqlanadi, oqibatda bepushtlik holati yuz beradi.

4.4-“**Tuxumdonning yallig‘lanishli kasalliklari patomorfologiyasi**” qismida ko‘rsatilganidek, tuxumdonning ovarial-menstrual faoliyati buzilishi, bepushtlik rivojlanishiga olib keladi. Surunkali ooforit kasalligi uzoq vaqt davom etuvchi yallig‘lanishli kasallikdir. Aksariyat hollarda u bachadon nayi yallig‘lanishi bilan salpingoooforit ko‘rinishida rivojlanadi va nay va tuxumdon bepushtligiga sababchi bo‘ladi. Polietiologik kasallik bo‘lib, infeksiya tuxumdonga turli yo‘llar bilan kiradi. Ko‘pincha endometrit, salpingit, peritonitdan keyin rivojlanadigan ikkilamchi kasallik hisoblanadi. Tuxumdon yallig‘lanishining o‘ziga xosligi shundan iboratki, a'zoning to‘qimasini asosan ovulyasiya va gormonal funksiyalarni bajaradigan tuzilmalar tashkil qiladi. Yallig‘lanish jarayoni, bu biriktiruvchi to‘qima va qon tomirlarda rivojlanganligidan, tuxumdonning mag‘iz qavatida va undagi ko‘p sonli qon tomirlar va tomirlar atrofida biriktiruvchi to‘qimada rivojlanadi (3-rasm). Tuxumdonda yallig‘lanish jarayonining surunkali va uzoq vaqt davom etishiga sabab, stroma-tomir tuzilmalarini ovarial va endokrin funksiyalarini bajaruvchi to‘qima tuzilmalari himoya qiladi va yallig‘lanishga yo‘l bermaydi.



3-rasm. 28 yoshli P. ismli ayol tuxumdoni. Qon tomirlarni zich holda proliferativ yallig‘lanish o‘rab olgan. Bo‘yoq: G-E. Kat: 1g‘x40.




4-rasm. 29 yoshli B. ismli ayol tuxumdoni. Surunkali yallig‘lanish oqibatida biriktiruvchi to‘qimaning fibroelastozga va gialinozga uchrashi. Bo‘yoq: G-E. Kat: 10x10.

